

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

OTABOYEV FERUZBEK OYBEK O'G'LI

IQTISODIY O'SISH VA INVESTITSION RESURLAR O'RTASIDAGI
MUTANOSIBLIKNI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

Dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on economic sciences

Otaboyev Feruzbek Oybek o'g'li

Iqtisodiy o'sish va investitsion resurslar o'rtasidagi mutanosiblikni

takomillashtirish.....3

Отабоев Ферузбек Ойбек ўғли

Совершенствование пропорциональности между экономическим ростом и

инвестиционными ресурсами.....29

Otaboev Feruzbek Oybek ogli

Improving the proportionality between economic growth and investment

resources.....57

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of published papers

Список опубликованных работ.....62

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

OTABOYEV FERUZBEK OYBEK O'G'LI

IQTISODIY O'SISH VA INVESTITSION RESURLAR O'RTASIDAGI
MUTANOSIBLIKNI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Iqt1466 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtiriladi.

Ilmiy rahbar:

Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Sherali Xusanovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.I.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "22" 08 soat 12:00 da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: tdu@tdiu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (176 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: tdu@tdiu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "8" 08 kuni tarqatildi.
(2025-yil "8" 08 daqi 23 raqamli reyestr bayonnomasi).



S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

B.E. Mamaraximov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, i.f.n., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida iqtisodiy o'sish va investitsion resurslar o'rtasidagi mutanosiblikning hal qiluvchi omillardan biri sifatidagi ahamiyati ortib bormoqda. Masalan, "2023-yilda rivojlangan mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi 12 foizga kamayib, 1,3 trillion dollarni tashkil etgan bo'lsa-da, rivojlanayotgan mamlakatlarga investitsiya oqimi sezilarli darajada oshgan. Bu holat sanoat va infratuzilmada yangi loyihalarga investitsiyalarni jalb qilishning ahamiyatini ko'rsatadi"¹. Samarali investitsiya siyosati iqtisodiy o'sishni rag'batlantirib, resurslardan maqbul foydalanish imkonini beradi va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, noto'g'ri taqsimlangan investitsiya oqimi iqtisodiy nomutanosiblik va uzoq muddatli muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois, investitsiya strategiyasini optimallashtirish va iqtisodiy o'sish sur'atlarini muvofiqlashtirish jahon iqtisodiyoti uchun muhim vazifa bo'lib, bu jarayon iqtisodiy samaradorlik, texnologiyalarning modernizatsiyasi va raqobatbardoshlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Jahonda globallashtirish jarayonlarining kengayib borishi sharoitida iqtisodiy o'sish va investitsion resurslar o'rtasidagi mutanosiblikni takomillashtirishning nazariy jihatlariga qaratilgan ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Milliy va mintaqaviy darajada investitsiya siyosatining iqtisodiy o'sishga ta'sirini tahlil qilish, samarali investitsiya modellarini ishlab chiqish, jahon bozorlari va kapital harakatining iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganish, transmilliy korporatsiyalar va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning rolini baholash, davlat tomonidan iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi investitsiya muhitini shakllantirish, soliq va kredit siyosatining ta'sirini tahlil qilish, ekologik barqarorlik va investitsiyalarning muhitga ta'siri, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga investitsiya kiritishning samaradorligini o'rganish iqtisodiy o'sish va investitsion resurslar o'rtasidagi mutanosiblikni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari bo'lib hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda iqtisodiy o'sish va investitsion resurslar o'rtasidagi mutanosiblikni takomillashtirish maqsadida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat investitsiya siyosatini takomillashtirish, qulay investitsion muhit yaratish va xorijiy sarmoyalarni jalb etish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, 2019-yilda qabul qilingan PF-5614-sonli farmonda iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan bo'lib, unda xorijiy investorlar bilan ishlashning institutsional bazasini yanada takomillashtirish va maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati samaradorligini oshirish kabi vazifalar ko'rsatilgan². Bundan

¹ Maxmudxodjayev A.Yu. Rivojlangan mamlakatlarda investitsiyalarni jalb qilish – iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili // CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION // https://cyberleninka.ru/article/n/rivozhlangan-mamlakatlarda-investitsiyalarni-zhalb-ilish-i-tisodiy-tara-iyotning-muim-omili?utm_source=chatgpt.com

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvardagi PF-5614-son "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/4147294>

tashqari, O‘zbekistonda barqaror o‘shir sur‘atlarini ta‘minlash maqsadida diversifikatsiyalashgan iqtisodiyotni shakllantirish, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasida chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan iqtisodiy taraqqiyot strategiyasida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiy modelni joriy etish nazarda tutilgan. Shuningdek, O‘zbekiston hukumati “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga investitsiyalarni oshirish orqali uzoq muddatli barqaror o‘shirni ta‘minlashga harakat qilmoqda. BMT Taraqqiyot dasturi tomonidan tayyorlangan “O‘zbekiston investitsion salohiyati” nashrida mamlakatning iqtisodiy salohiyati, biznes takliflar va xorijiy sarmoyadorlar bilan intervyular keltirilgan bo‘lib, bu O‘zbekistonning investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan sa‘y-harakatlarini aks ettiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-iyuldagi PF-111-son “Ma‘muriy islohotlar doirasida investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 7-sentyabrdagi PF-215-son “O‘zbekiston Respublikasining to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar jamg‘armasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2024-yil 27-avgustdagi PQ-303-son “O‘zbekiston Respublikasi milliy investitsiya jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”, 2022-yil 28-dekabrda PQ-459-son “O‘zbekiston Respublikasining 2023-2025-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 30-dekabrda PQ-72-son “O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida”, 2021-yil 25-avgustda PQ-5233-son “Investitsiya loyihalarini tashqi infratuzilma bilan ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyundagi 331-son “Shaxsiy investitsiya hisobvarag‘ini ochish va undagi mablag‘larning hisobini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”, 2023-yil 14-yanvardagi 16-son “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish tizimini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 15-oktyabrdagi 606-son “Respublika hududlarida innovatsiya va investitsiya faoliyatini jadallashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 7-iyundagi 306-son “Xorijiy va mahalliy investorlarning investitsiya loyihalari tashqi infratuzilmasini yaratish xarajatlarini davlat tomonidan qoplab berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”, 2022-yil 21-aprelda 206-son “Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini shakllantirish va davlat investitsiyalarini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-

axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Iqtisodiy mutanosiblik, ularning mazmuni hamda mohiyati, turlari va boshqa jihatlari bilan bir qator olimlar, jumladan, V.S.Dunayev, M.B.Mazanova, M.Z.Bor, S.S.Shatalin, T.G.Brodskiy, D.K.Trifanov kabilar shug‘ullanib, bu masalalarni yoritishga harakat qilganlar³. Lekin bu olimlarning asarlarida iqtisodiy mutanosiblik faqat rejali iqtisodiyotga xos hodisa deb ko‘rsatilgan va o‘sha sharoitga moslab uning mazmuni, shakllari, amal qilishi yoritilgan.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A.Abdug‘aniyev, U.Abdurazzoqov, A.O‘lmasov, M.Sharifxo‘jayev, Sh.Shodmonov, E.Shodmonov, M.Tursunxo‘jayev, A.Vahobov, X.Barakayev, V.Osminin, F.Natochiyev, M.Tadjimuratov, A.O‘rinov, T.Djurayev, O.Hamirayev, U.G‘afurov va boshqalarning tadqiqotlarida iqtisodiy mutanosiblikning ayrim jihatlari yoritilgan⁴.

Lekin ushbu mualliflarning ishlarida iqtisodiy mutanosiblikning nazariy asoslari, mazmuni uni ta‘minlashning ba‘zi jihatlari bilan cheklanib qolingan bo‘lib, iqtisodiy o‘shish va kapital resurslar mutanosibligi bo‘yicha alohida tadqiqot ishlari olib borilmagan. Bundan tashqari, yangicha iqtisodiy sharoitda, yangi iqtisodiyotni barpo etish, ya‘ni iqtisodiyotni modernizatsiyalash, tarkibiy o‘zgartirish, diversifikatsiyalash jarayoni amalga oshirilayotgan sharoitda uning nazariy asoslari, o‘ziga xos xususiyatlari takomillashtirish masalalari yaxlit tahlil etilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Mazkur ilmiy tadqiqot ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi iqtisodiy o‘shish va investitsion resurslar o‘rtasidagi mutanosiblikni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

iqtisodiy mutanosiblikning mazmuni va unga bo‘lgan turli xil yondashuvlarni tizimlashtirish;

iqtisodiy o‘shish va investitsion resurslar o‘rtasidagi mutanosiblikning mazmuni hamda ularning o‘zaro aloqadorligini ochib berish;

iqtisodiy o‘shish va investitsion resurslar o‘rtasidagi bog‘lanish modellarini tahlil qilish;

O‘zbekiston iqtisodiyoti sohalari va tarmoqlari o‘rtasidagi mutanosiblik holati hamda muammolarini o‘rganish;

³ Мазанова М. Территориальные пропорции народного хозяйства СССР. – М., 1970; Бор М. Эффективность общественного производства и проблемы оптимального планирования. – М.: Мысль, 1972. – 336 с.; Шаталин С. Функционирование экономики развитого социализма. – М., 1982; Трифанов Д. Общие экономические законы. – Л.: ЛГУ, 1964.

⁴ Абдуганиев А. Темпы и пропорции воспроизводства общественного продукта в Узбекистане. – Т.: Fan, 1973; Улмасов А., Вахобов А. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. – Т.: Шарқ, 2006. – 480 б.; Улмасов А., Шарифхужаев М. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. – Т.: Меҳнат, 1995. – 528 б.; Вахобов А. Бозор муносабатлари тизимидаги ижтимоий фондлар. – Т.: Шарқ, 2003. – 319 б.; Шодмонов Ш., Ғофуров У. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. – Т.: ИҚТИСОД-МОЛИЯ, 2010. – 728 б.; Ғуломов С. Бозор иқтисодиёти назарияси ва амалиёти. Дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 2000. – 280 б.

iqtisodiy o'sishni ta'minlashda yalpi ichki mahsulot va investitsiyalar o'rtasidagi mutanosiblik holatini tahlil qilish;

iqtisodiy o'sish va investitsion resurslar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashning xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish;

mutanosib iqtisodiy o'sishning asosiy sharti sifatida samarali makroiqtisodiy siyosatni takomillashtirish yo'llarini aniqlash;

iqtisodiy o'sish va investitsion resurslar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlarini ochib berish;

milliy iqtisodiyotning kapital resurslar bilan mutanosiblikda rivojlanishining istiqbollarini baholash.

Tadqiqotning obyekti bo'lib O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy o'sish va investitsion resurslar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash bilan bog'liq hodisa hamda jarayonlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib iqtisodiy o'sish va investitsion resurslar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash jarayonlarida vujudga keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, mantiqiy fikrlash, prognozlashtirish, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil etish, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, monografik tahlil, kompleks tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra, "iqtisodiy mutanosiblik" tushunchasining iqtisodiy mazmuni iqtisodiy o'sishning barqarorligi, resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy-ekologik muvozanatga erishishga xizmat qiluvchi ishlab chiqarish omillari, tarmoqlar va iqtisodiy faoliyat tarkibiy qismlari o'rtasidagi maqbul nisbatlarni ta'minlash jarayonida zamonaviy o'zgarishlar hamda tendensiyalarni hisobga olishi nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra, investitsion resurslar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi mutanosiblikning nazariy tavsifdagi grafik usulidan foydalanish asosida davlatning investitsiya hamda yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atlari o'rtasidagi nisbatni "barqaror" ($I/GDP=1$), "o'sib boruvchi" ($I/GDP<1$), "pasayib boruvchi" ($I/GDP>1$) holatlariga ko'ra tartibga solish orqali mamlakatdagi makroiqtisodiy barqarorlikka ta'sir ko'rsatish imkoni asoslangan;

milliy iqtisodiyotdagi investitsiya hajmi hamda yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atlari o'rtasidagi samarali mutanosiblikni ta'minlash imkonini beruvchi tartibga solish mexanizmini yetakchi tarmoq va sohalardagi investitsiya hajmini me'yorga muvofiqligi buzilishining salbiy ta'sirini miqdoriy baholash hamda mutanosiblik darajasiga tegishli o'zgartirishlar kiritish orqali takomillashtirish taklifi ishlab chiqilgan;

O'zbekistonda investitsiya va yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atlari o'rtasidagi mutanosiblikka ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

iqtisodiy o'sish va investitsion resurslar o'rtasidagi mutanosiblikning mazmuni hamda ularning o'zaro aloqadorligini ochib berish asosida O'zbekiston iqtisodiyoti

sohalari va tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblik holati hamda muammolari o'rganilgan;

iqtisodiy o'sish va investitsion resurslar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashning xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish orqali O'zbekistonda foydalanish yuzasidan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan;

iqtisodiy o'sishni ta'minlashda yalpi ichki mahsulot va investitsiyalar o'rtasidagi mutanosiblik holatini tahlil qilish asosida uni ta'minlash mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari asoslangan;

O'zbekistonda milliy iqtisodiyotning kapital resurslar bilan mutanosiblikda rivojlanishining uzoq muddatli istiqbollari baholangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil jarayonida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilgani, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi hamda ilmiy asoslangani, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot jarayonida olingan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan iqtisodiy o'sish hamda investitsion resurslar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashga yo'naltirilgan maxsus ilmiy tadqiqot ishlarida ilmiy-uslubiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalar, ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va boshqa davlat boshqaruvi organlari uchun iqtisodiy o'sish hamda investitsion resurslar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash borasida tahliliy tavsiyalar tayyorlashda, oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan "Iqtisodiyot nazariyasi" hamda "Ijtimoiy iqtisodiyot va davlat siyosati" fanlarining sillabuslarini takomillashtirish va talabalarga ta'lim berish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Iqtisodiy o'sish va investitsion resurslar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashni takomillashtirish borasida ishlab chiqilgan takliflar asosida:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra "iqtisodiy mutanosiblik" tushunchasining iqtisodiy mazmuni iqtisodiy o'sishning barqarorligi, resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy-ekologik muvozanatga erishishga xizmat qiluvchi ishlab chiqarish omillari, tarmoqlar va iqtisodiy faoliyat tarkibiy qismlari o'rtasidagi maqbul nisbatlarni ta'minlash jarayonida zamonaviy o'zgarishlar hamda tendensiyalarni hisobga olishi nuqtayi nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy ma'lumotlardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Iqtisodiyot" nomli darslik tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-sonli, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2023-yil 31-maydagi 169-sonli buyruqlari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda

ishlab chiqarish omillari, tarmoqlar va iqtisodiy faoliyat tarkibiy qismlari o'rtasidagi maqbul nisbatlarni ta'minlash jarayonida zamonaviy o'zgarishlar hamda tendensiyalarni hisobga olishi nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan "iqtisodiy mutanosiblik" tushunchasi bo'yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra, investitsion resurslar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi mutanosiblikning nazariy tavsifdagi grafik usulidan foydalanish asosida davlatning investitsiya hamda yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atlari o'rtasidagi nisbatni "barqaror" ($I/GDP=1$), "o'sib boruvchi" ($I/GDP<1$), "pasayib boruvchi" ($I/GDP>1$) holatlariga ko'ra tartibga solish orqali mamlakatdagi makroiqtisodiy barqarorlikka ta'sir ko'rsatish imkoniga oid nazariy-uslubiy ma'lumotlardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Iqtisodiyot nazariyasi" o'quv qo'llanmasini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2025-yil 10-iyuldagi 04-33-00696-sonli ma'lumotnomasi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2022-yil 24-oktyabrdagi 328-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda davlatning investitsiya va yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atlari o'rtasidagi nisbatni tartibga solish orqali mamlakatdagi makroiqtisodiy barqarorlikka ta'sir ko'rsatishi bo'yicha nazariy bilimlarni kengaytirishga xizmat qilgan;

milliy iqtisodiyotdagi investitsiya hajmi hamda yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atlari o'rtasidagi samarali mutanosiblikni ta'minlash imkonini beruvchi tartibga solish mexanizmini yetakchi tarmoq va sohalardagi investitsiya hajmini me'yorga muvofiqligi buzilishining salbiy ta'sirini miqdoriy baholash hamda mutanosiblik darajasiga tegishli o'zgartirishlar kiritish orqali takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2025-yil 10-iyuldagi 04-33-00696-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida investitsiya va yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atlari o'rtasidagi samarali mutanosiblikni ta'minlash imkoni yaratilgan;

O'zbekistonda investitsiya va yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atlari o'rtasidagi mutanosiblikka ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2025-yil 10-iyuldagi 04-33-00696-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida O'zbekistonda investitsiya va yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlovchi asosiy ko'rsatkichlarning o'zaro muvofiqligini baholashga yordam bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 2 ta xorijiy va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 5 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish

tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola va xorijiy jurnallarda 2 ta maqola nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 145 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Iqtisodiy o'sish va investitsion resurslar o'rtasidagi mutanosiblikning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida iqtisodiy mutanosiblikning mazmuni va unga bo'lgan turli xil yondashuvlar, iqtisodiy o'sish va investitsion resurslar o'rtasidagi mutanosiblikning mazmuni hamda ularning o'zaro aloqadorligi, iqtisodiy o'sish va investitsion resurslar o'rtasidagi bog'lanish modellari tahlil etilgan.

Iqtisodiy mutanosiblik iqtisodiyotda resurslarning optimal taqsimlanishi va tarmoqlar o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash orqali samarali faoliyat ko'rsatishning asosiy sharti hisoblanadi. U iqtisodiy o'sishning barqarorligini qo'llab-quvvatlab, iste'mol, investitsiya va ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi nisbatlarning mutanosib rivojlanishiga xizmat qiladi. Zamonaviy iqtisodiyotda globallashtirish va raqamli texnologiyalar ta'sirida mutanosiblikni saqlash iqtisodiy tizimlarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omilga aylanmoqda. Iqtisodiy mutanosiblikning o'rnini, shuningdek, ekologik barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda ko'rinib, uni barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uzviy bog'laydi. Uni tadqiq etishning dolzarbligi so'nggi yillarda iqtisodiy inqirozlar, pandemiya va resurslar taqchilligi sharoitida tarmoqlararo nomutanosiblik muammolarining kuchayishi bilan izohlanadi. Ilmiy jihatdan mutanosiblikni o'rganish iqtisodiyot nazariyasidagi klassik va zamonaviy modellarni integratsiya qilish imkonini berib, ularning amaliy qo'llanish samaradorligini oshiradi.

Iqtisodiy mutanosiblik iqtisodiy o'sish va barqarorlikning asosiy shartlaridan biri sifatida ishlab chiqarish omillari (mehnat, kapital, texnologiya) hamda tarmoqlar (sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmatlar) o'rtasidagi optimal nisbatlarni ta'minlaydi. U iste'mol va investitsiya o'rtasidagi muvofiqlikni shakllantirib, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishga yordam beradi. So'nggi yillarda mutanosiblikka ekologik va ijtimoiy jihatlardan yondashish kuchayib, barqaror rivojlanish maqsadlari bilan bog'liq yangi konsepsiyalar (masalan, “yashil iqtisodiyot”) paydo bo'lmoqda.

Iqtisodiy mutanosiblikka bir qator asosiy ilmiy yondashuvlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Keynscha yondashuvda mutanosiblik iste'mol va investitsiya nisbatlariga asoslanib, davlat aralashuvi orqali ta'minlanadi. Neoklassik yondashuv

esa bozor mexanizmi va resurslarning optimal taqsimlanishiga e'tibor qaratib, mutanosiblikni tabiiy ravishda shakllanuvchi jarayon sifatida ko'radi. XX asrdagi bu yondashuvlar mutanosiblikning statik modellarini ishlab chiqishga asos soldi.

So'nggi yillarda (2021-2024) raqamli iqtisodiyot mutanosiblikni ta'minlashda muhim omil sifatida talqin qilinmoqda, bu esa AI va Big Data asosidagi tahlillarga tayangan modellarning rivojlanishiga olib keldi. Ekologik mutanosiblik "Green Economy" konsepsiyasi doirasida iqtisodiy o'sishni atrof-muhit bilan muvofiqlashtirishga qaratilgan yangi yondashuv sifatida ko'zga tashlanmoqda. Innovatsion yondashuvlar Industry 4.0 va texnologik rivojlanish orqali mutanosiblikni takomillashtirish usullarini taklif qilmoqda.

Klassik yondashuvlar mutanosiblikni tarmoqlararo balansga erishishda samarali bo'lsa-da, zamonaviy yondashuvlar raqamli va ekologik jihatlarni qamrab olishi bilan ajralib turadi. Klassik modellarning cheklovlari statik tahlil bilan chegaralangan bo'lsa, zamonaviy modellar dinamik va integrativ yondashuvni taklif qiladi. So'nggi yillarda bu yondashuvlarning sintezi (raqamli va ekologik mutanosiblik) keng yoyilmoqda.


Eng avvalo, har qanday iqtisodiy tushunchaning muomalaga kiritilishi va qo'llanilishi muayyan maqsad ostida amalga oshiriladi. Bu o'rinda asosiy maqsad – iqtisodiyotning turli darajalari hamda sohalarida barqaror o'sish, samaradorlik va muvozanatga yo'naltirilganlikka erishish hisoblanadi.

Iqtisodiy mutanosiblikning markaziy bo'g'inini iqtisodiyotning turli qismlari o'rtasidagi muvofiqlikni ifoda etuvchi maqbul nisbatlar tashkil etadi. Mazkur nisbatlar obyektiv tavsifga ega bo'lib, ular turli iqtisodiy qonunlarning ta'siri ostida namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy mutanosiblik o'z mazmuniga ko'ra barcha iqtisodiy hodisa va jarayonlarni qamrab olsada, mazkur holatni tushunishni qulaylashtirish nuqtayi nazaridan omillar va tarmoqlar guruhini alohida ko'rsatish mumkin. Chunki ishlab chiqarish omillari – ishchi kuchi, kapital, tabiiy resurslar, tadbirkorlik qobiliyati har qanday takror ishlab chiqarish jarayonining asosiy va muhim shartlari bo'lib hisoblansa, tarmoqlar (masalan, sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish va h.k.) va iqtisodiy faoliyat tarkibiy qismlari (masalan, investitsiya, iste'mol, daromadlar va h.k.) milliy iqtisodiyot tarkibiy tuzilmasi hamda faoliyat barqarorligini ta'minlab beradi.

Iqtisodiy mutanosiblik tushunchasining shakllanishi va amal qilishida eng muhim jihatlardan biri, fikrimizcha, bu mazkur tushunchaning **zamonaviy o'zgarishlar va tendensiyalarni hisobga olishidir**. Chunki iqtisodiy mutanosiblik o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, iqtisodiy tizimning dastlabki va asosiy tushunchalaridan hisoblansa-da, u dinamik jarayonlar ta'siriga beriluvchan xususiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, bugungi kunda ushbu tushuncha o'z mazmuniga ko'ra ijtimoiy farovonlik va ekologik barqarorlikni ham qamrab olishi lozim.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda, iqtisodiy mutanosiblik tushunchasining shakllanishi belgilab beruvchi asosiy jihatlarni quyidagi chizma orqali ifodalash mumkin (1-rasm).



1-rasm. Iqtisodiy mutanosiblik tushunchasining shakllanishi belgilab beruvchi asosiy jihatlar⁵.

Iqtisodiy mutanosiblikning ilmiy adabiyotlardagi mazmunini tizimli va tanqidiy tahlili asosida dissertatsiya ishida quyidagi mualliflik ta’rifi ilgari surildi: **“Iqtisodiy mutanosiblik – bu iqtisodiyotda ishlab chiqarish omillari, tarmoqlar va iqtisodiy faoliyat tarkibiy qismlari o’rtasidagi maqbul nisbatlarni ta’minlash jarayoni bo’lib, u iqtisodiy o’sishning barqarorligi, resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy-ekologik muvozanatga erishishga xizmat qiladi”⁶.**

Odatda, investitsion resurslar va iqtisodiy o’sish o’rtasidagi mutanosiblik iqtisodiyotning uzoq muddatli taraqqiyotini ta’minlashda muhim omil sifatida ko’riladi. Investitsion resurslar deb kapital, texnologiya, inson resurslari va tabiiy boyliklarning majmuasi tushuniladi. Ular iqtisodiy faoliyatning samaradorligi va o’sish trayektoriyasini belgilaydi. Iqtisodiy o’sish esa, odatda, yalpi milliy mahsulot (YAMM) ko’rsatkichi yoki aholi jon boshiga to’g’ri keladigan daromad o’sishi orqali ifodalanadi⁷. Ushbu mutanosiblikning mazmuni investitsiyalarning miqdori va sifati bilan iqtisodiy o’sishning sur’ati hamda barqarorligi o’rtasidagi optimal muvofiqlikni ta’minlashdan iboratdir.

Dissertatsiya ishida investitsion resurslar va iqtisodiy o’sish o’rtasidagi mutanosiblikning nazariy asoslarining tadqiqi orqali bir qator ilmiy farazlar shakllantirilgan:

investitsion resurslarning iqtisodiy o’sishga ta’siri mavjud, chunki investitsiyalar yalpi ishlab chiqarish hajmiga, demak, iqtisodiy o’sishga ta’sir ko’rsatadi;

o’zaro bir-biriga ta’sir ko’rsatuvchi tomonlarning mavjudligi ular o’rtasidagi muayyan nisbatlarning amal qilishini shartlaydi. Faqat bu nisbatlarning namoyon bo’lishi darajalari o’zaro farqlanishi mumkin;

muayyan nisbatlar asosida o’zgarib turuvchi hodisa va jarayonlar iqtisodiy mutanosiblikning mavjudligidan darak beradi;

investitsion resurslar tarkibi xilma-xil bo’lib, ularning iqtisodiy o’sishga ta’siri ham o’zaro farqlanadi;

iqtisodiy o’sish ham, o’z navbatida, investitsion resurslar hajmi va tarkibiga ta’sir ko’rsatishi mumkin. Bu o’rinda mamlakatdagi iqtisodiy o’sish sur’atiga qarab investitsion resurslar hajmini tartibga solish mumkin;

⁵ Muallif ishlanmasi asosida tuzilgan.

⁶ Muallif ishlanmasi asosida tuzilgan.


⁷ Solow R.M. A Contribution to the Theory of Economic Growth // The Quarterly Journal of Economics, 1956. – № 70 (1). – P. 65-94.

iqtisodiy o‘shish va investitsion resurslar o‘rtasida mutanosiblik mavjud ekan, iqtisodiy o‘shishning maqbul darajasini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan investitsion resurslar hajmini aniqlash imkoni va zarurati ham mavjud bo‘ladi;

investitsiyalar hajmining o‘shishiga ta’sir ko‘rsatish imkoni keng va natijaliroq hisoblansa, YaIM o‘shishiga ta’sir ko‘rsatish imkoni esa cheklangan va uning natijasi doimo ham aniq bo‘lmasligi mumkin.

Investitsion resurslar va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi mutanosiblik nazariy jihatdan neoklassik o‘shish modeli (Solow-Swan modeli) hamda endogen o‘shish nazariyasiga asoslanadi. Solou modeliga ko‘ra, kapitalning to‘planishi iqtisodiy o‘shishning asosiy harakatga keltiruvchi kuchi bo‘lib, biroq u cheklangan qaytarish qonuniga (diminishing returns) bo‘ysunadi. Bu yerda investitsiyalar miqdori va uning samarali taqsimlanishi o‘rtasidagi mutanosiblik iqtisodiyotni muvozanatli o‘shish yo‘liga olib chiqadi. Romer endogen o‘shish nazariyasida esa, texnologik innovatsiyalar va inson kapitali investitsiyalari uzoq muddatli o‘shishning muhim omili sifatida ta’kidlanadi, bu esa mutanosiblikning sifat jihatiga e’tiborni kuchaytiradi.

Investitsion resurslar va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi mutanosiblikning mazmunini ochib berish uchun uning amal qilish tamoyillarini ko‘rib chiqish muhim hisoblanadi (2-rasm).



2-rasm. Investitsion resurslar va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi mutanosiblikning amal qilish tamoyillari⁸.

Rasmdan ko‘rinadiki, birinchi tamoyil – resurslarning samarali taqsimlanishi bo‘lib, neoklassik o‘shish nazariyasiga ko‘ra, kapitalning to‘planishi iqtisodiy o‘shishning asosiy drayveri hisoblanadi, lekin bu jarayonda investitsiyalarning iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha muvozanatli taqsimlanishi muhimdir⁹. Masalan, agar investitsiyalar faqat bitta sektorga (masalan, qurilishga) yo‘naltirilsa, boshqa sohalardagi (ta’lim, texnologiya) o‘shish cheklanib, umumiy samaradorlik pasayadi.

Ikkinchi tamoyil – texnologik innovatsiyalarning integratsiyasi bo‘lib, endogen o‘shish modelida ta’kidlanishicha, investitsiyalar faqat asosiy kapitalga emas, balki yangi texnologiyalar va tadqiqotlarga yo‘naltirilganda uzoq muddatli o‘shishga xizmat qiladi¹⁰. Bu tamoyil Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda yaqqol ko‘rindi, bu yerda 1980-1990-yillarda texnologiyaga qaratilgan investitsiyalar YAMM o‘shishini 8-10 % ga yetkazdi¹¹.

⁸ Muallif ishlanmasi asosida tuzilgan.

⁹ Solow R.M. A Contribution to the Theory of Economic Growth // The Quarterly Journal of Economics”, 1956. – № 70 (1). – P. 65-94.

¹⁰ Romer P.M. Endogenous Technological Change // Journal of Political Economy, 1990. – № 98 (5). – P. 71-102.

¹¹ World Bank. The East Asian Miracle: Economic Growth and Public Policy. – Oxford: Oxford University Press, 1993.

Uchinchi tamoyil – institutsional muhitning ta’siri bo‘lib, investitsiyalardan keladigan foyda ko‘p jihatdan davlat siyosati, qonun ustuvorligi va mulk huquqlarining mustahkamligiga bog‘liq¹² (North, 1990). Masalan, korrupsiya darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda investitsiyalarning 30 % gacha qismi behuda sarflanadi, bu esa o‘shiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi¹³.

To‘rtinchi tamoyil – vaqt gorizonti va dinamik muvozanatdan iborat bo‘lib, investitsiyalarning qisqa muddatli (infratuzilma loyihalari) va uzoq muddatli (inson kapitaliga sarmoya) ta’sirlari o‘rtasidagi mutanosiblik o‘shining barqarorligini ta’minlaydi. Masalan, Xitoyda 2000-2010-yillarda infratuzilmaga yo‘naltirilgan investitsiyalar o‘shini tezlashtirdi, lekin so‘nggi yillarda ta’lim va innovatsiyalarga e’tibor kuchayishi uzoq muddatli samarani oshirdi¹⁴.

Ushbu tamoyillarning amal qilishi amaliy misollarda ham o‘z aksini topadi. Singapurda davlat tomonidan boshqarilgan investitsiya siyosati va xususiy sektor bilan hamkorlik 1965-1990-yillarda o‘rtacha 7 %lik o‘shini ta’minladi¹⁵. Xulosa qilib aytganda, investitsion resurslar va iqtisodiy o‘sh o‘rtasidagi mutanosiblikning amal qilish tamoyillari resurslarning samarali taqsimoti, texnologik rivojlanish, mustahkam institutsional asos va vaqt omiliga tayanadi. Ushbu tamoyillarga rioya qilish iqtisodiyotning mustahkam va barqaror o‘shini kafolatlaydi.

Iqtisodiy o‘sh va investitsion resurslar o‘rtasidagi bog‘lanishni tahlil qilishda bir qator nazariy modellar qo‘llaniladi, ular investitsiyalarning o‘shiga ta’sirini turli jihatlardan talqin qiladi (1-jadval). Bu modellar iqtisodiyotdagi resurslarning to‘planishi, texnologik rivojlanish va institutsional omillarning o‘zaro ta’sirini ko‘rsatadi. Ularning asosiy maqsadi – investitsiyalarning miqdori va sifati bilan iqtisodiy o‘sh o‘rtasidagi munosabatlarni modellashtirish hamda prognoz qilishdan iboratdir.

Quyidagi jadvaldan ko‘rinadiki, birinchi va eng muhim model – Solou-Svan neoklassik o‘sh modelini hisoblab, ushbu modelda iqtisodiy o‘sh kapital to‘planishi (investitsiyalar), mehnat kuchi va texnologik darajaga bog‘liq deb hisoblanadi. Investitsiyalar asosiy kapitalga yo‘naltirilib, yalpi milliy mahsulot (YAMM)ning o‘shiga olib keladi, lekin kapitalning cheklangan qaytarish qonuni (diminishing returns) tufayli, agar texnologiya rivojlanmasa, o‘sh muayyan nuqtada to‘xtaydi.

Modelning asosiy tenglamasi quyidagicha ifodalanadi:

$$Y = K^{\alpha}(AL)^{1-\alpha}, \quad (1)$$

bu yerda Y – mahsulot, K – kapital, A – texnologiya, L – mehnat, α – kapitalning ulushi.

Bu model investitsiyalarning qisqa muddatli ta’sirini yaxshi tushuntiradi, lekin uzoq muddatli o‘sh uchun texnologik innovatsiyalarni e’tiborga olmaydi.

Ikkinchi model – endogen o‘sh modeli (Romer, 1990; Lucas, 1988) bo‘lib, ushbu modelda investitsiyalar nafaqat asosiy kapitalga, balki inson kapitaliga (ta’lim, malaka) va tadqiqot va ishlanmalarga (R&D) yo‘naltirilganda uzoq muddatli

¹² North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.

¹³ Transparency International. Corruption Perceptions Index 2021.

¹⁴ IMF. (2022). “World Economic Outlook: Countering the Cost-of-Living Crisis”.

¹⁵ Stiglitz J.E. Some Lessons from the East Asian Miracle // The World Bank Economic Review, 1996. – № 11 (2). – P. 151-177.

o'sishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Romer (1990) texnologiyani ekzogen emas, balki ichki (endogen) omil sifatida ko'rib, uning investitsiyalar bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Bu modelda A (texnologiya) investitsiyalarga proporsional ravishda o'sadi:

1-jadval

Iqtisodiy o'sish va investitsion resurslar o'zaro bog'liqligini ifodalovchi modellarning afzallik hamda kamchilik jihatlari¹⁶

Modelning nomi	Modelning qisqacha mazmuni	Modelning afzallik jihatlari	Modelning kamchilik jihatlari
Solou-Svan modeli	Iqtisodiy o'sish kapital to'planishi (investitsiyalar), mehnat kuchi va texnologik darajaga bog'liq; kapitalning cheklangan qaytarish qonuni amal qiladi.	Sodda va aniq matematik asosga ega; investitsiyalarning qisqa muddatli ta'sirini tushuntirishda samarali.	Texnologiyani ekzogen deb hisoblaydi; uzoq muddatli o'sishni tushuntira olmaydi, innovatsiyalarni e'tiborga olmaydi.
Endogen o'sish modeli	Investitsiyalar inson kapitali va tadqiqotlar (R&D) orqali texnologiyani rivojlantirib, uzoq muddatli o'sishni ta'minlaydi.	Uzoq muddatli o'sishni innovatsiyalar bilan bog'laydi; Janubiy Koreya kabi misollarni tushuntirishda muvofiq.	Matematik jihatdan murakkab; institutsional omillarni to'liq hisobga olmaydi.
Xarrod-Domar modeli	O'sish investitsiyalar ulushi va kapital-mahsulot nisbatiga bog'liq ($g = s/v$); kapital to'planishiga e'tibor qaratadi.	Juda sodda va tushunarli; qisqa muddatli prognozlar uchun qulay.	Texnologik o'zgarishlar va dinamik taqsimotni e'tiborga olmaydi; zamonaviy iqtisodiyotlar uchun cheklangan ahamiyatga ega.

$$\dot{A} = \delta H_A, \quad (2)$$

bu yerda H_A – tadqiqotga sarflangan inson kapitali.

Bu model Janubiy Koreya va Singapur kabi mamlakatlarda innovatsiyalarga asoslangan o'sishni tushuntirishda muvaffaqiyatli qo'llanilgan.


Uchinchi model – Xarrod-Domar modeli (Harrod, 1939; Domar, 1946) bo'lib, ushbu model investitsiyalarning o'sishga ta'sirini kapital-mahsulot nisbati (capital-output ratio) orqali talqin qiladi. Unga ko'ra, o'sish sur'ati (g) investitsiyalar ulushi (s) va kapital samaradorligi (v) ga bog'liq: $g = s/v$. Bu model qisqa muddatli tahlilda samarali bo'lsa-da, texnologik o'zgarishlar va resurslarning dinamik taqsimotini hisobga olmaydi, shuning uchun zamonaviy iqtisodiyotlar uchun cheklangan ahamiyatga ega.

To'rtinchi model – institutsional va strukturaviy modellar (North (1990); Asemoglu hamda Robinson (2012)) bo'lib, ular investitsiyalar samarasini institutsional muhit (qonun ustuvorligi, mulk huquqlari) va iqtisodiy struktura bilan bog'laydi. Masalan, Jahon banki (2022) tadqiqotlariga ko'ra, institutsional islohotlar investitsiyalardan olinadigan foydani 25-40 %ga oshiradi.

¹⁶ Muallif tomonidan tuzilgan.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy o‘rta o‘rta va investitsion resurslar o‘rtasidagi bog‘lanish modellari kapital to‘planishi, texnologik rivojlanish va institutsional omillarga asoslanadi. Solou modeli qisqa muddatli ta‘sirni, endogen model uzoq muddatli innovatsiyalarni, Xarrod-Domar esa soddalashtirilgan nisbatni tahlil qiladi, institutsional modellar esa kontekstga bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Ushbu modellarning kombinatsiyasi zamonaviy iqtisodiyotlarning murakkab dinamikasini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Investitsion resurslar va iqtisodiy o‘rta o‘rta o‘rtasidagi mutanosiblikning mazmunini ochib berishda mazkur ikki ko‘rsatkich o‘rtasidagi nisbatning namoyon bo‘lish shakllari, investitsiya hamda yalpi ichki mahsulotning o‘rta o‘rta sur‘atlaridagi “tabiiy” amal qilish hamda davlat tomonidan tartibga solish holatlarini ifodalovchi nazariy tavsifdagi grafik usulidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi (3-rasm).



3-rasm. Investitsion resurslar va iqtisodiy o‘rta o‘rta o‘rtasidagi mutanosiblikning mazmunini ochib berishda nazariy tavsifdagi grafik usulidan foydalanish.¹⁷

3-rasmdan ko‘rinadiki, A chizmada investitsiya va yalpi ichki mahsulot o‘rta o‘rta sur‘atlari o‘rtasidagi nisbatning dinamikasi tasvirlangan. (a) chiziq – bu mazkur nisbatning mutlaq ideal ko‘rinishi bo‘lib, u muayyan davr mobaynida o‘zgaruvchan holda saqlanib qoladi. Biroq amaliy hayotda investitsiya va yalpi ichki mahsulot o‘rta o‘rta sur‘atlari o‘rtasidagi nisbat o‘zgaruvchan bo‘ladi. Uning turli omillar ta‘sirida gohida pasayib, gohida ko‘tarilib turishi natijasida chizma “to‘lqinsimon” ko‘rinish oladi ((b) chiziq). (c) chiziq – bu turli omillar, shu jumladan, davlatning faol tartibga solishi natijasida nisbat miqdorining pasayib borishini ifodalasa, (d) chiziq aksincha, nisbat miqdorining o‘shirib borishini ifodalaydi.

B chizmada investitsiyaning o‘rta o‘rta sur‘ati dinamikasining tasviri keltirilgan. Chizmadan ko‘rinadiki, 1 raqami bilan ifodalangan to‘g‘ri chiziq muayyan davr mobaynida investitsiya hajmining “tabiiy” holdagi harakatini ifodalab, u bir maromda boradi. Biroq davlat o‘zining investitsiya siyosati orqali iqtisodiy o‘rta o‘rta sur‘atga ta‘sir ko‘rsatishni istasa, bu gipotetik tarzda 2 yo‘l bilan amalga oshishi mumkin: birinchisi – t_g nuqtadan boshlab investitsiyaning o‘rta o‘rta sur‘atini oshirib borish (2

¹⁷ Muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.

raqami bilan ifodalangan); ikkinchisi – t_g nuqtadan boshlab investitsiyaning o‘shish sur‘atini pasaytirib borish (3 raqami bilan ifodalangan).

Buning natijasida, S chizmada ifodalanganidek, YaIMning o‘shish sur‘atida sezilarli o‘zgarishlar yuzaga keladi. Bular: investitsiya hajmining “tabiiy” holdagi harakati tufayli YaIMning o‘shish sur‘atining barqaror holati (1 raqami); davlatning investitsiya sur‘atini o‘stirishi natijasida YaIMning o‘shish sur‘atining o‘shib borishi (2 raqami); va aksincha, davlatning investitsiya sur‘atini pasaytirishi natijasida YaIMning o‘shish sur‘atining pasayib borishi (3 raqami).

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, davlat investitsiya va yalpi ichki mahsulot o‘shish sur‘atlari o‘rtasidagi nisbatni tartibga solish orqali mamlakatdagi makroiqtisodiy barqarorlikka ta’sir ko‘rsatish imkoniga ega bo‘ladi.


Dissertatsiyaning **“Investitsion resurslar asosida iqtisodiy o‘shishni ta’minlash mexanizmining amal qilish holati va rivojlanish tendensiyalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida milliy iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari o‘rtasidagi mutanosiblik holati hamda muammolari, iqtisodiy o‘shishni ta’minlashda yalpi ichki mahsulot va investitsiyalar o‘rtasidagi mutanosiblik holati tahlili, iqtisodiy o‘shish va investitsion resurslar o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashning xorijiy davlatlar tajribasi tadqiq etilgan.

O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti sohalari va tarmoqlari o‘rtasidagi mutanosiblik mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, resurslarning samarali taqsimlanishi, tarmoqlararo integratsiya va umumiy o‘shish sur‘atlariga ta’sir ko‘rsatadi. Mutanosiblik deganda, qishloq xo‘jaligi, sanoat, xizmat ko‘rsatish, energetika kabi asosiy sohalari va ularning ichki tarmoqlari (masalan, paxtachilik, avtomobilsozlik, turizm) o‘rtasidagi muvozanatli o‘zaro bog‘liqlik tushuniladi. O‘zbekistonda bu mutanosiblikning holati so‘nggi yillarda islohotlar natijasida sezilarli o‘zgarishlarga uchradi, biroq bir qator muammolar hamon saqlanib qolmoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotida mutanosiblikning shakllanishida davlat siyosati va bozor mexanizmlari muhim rol o‘ynaydi. 2023-yil ma’lumotlariga ko‘ra, YAMM tarkibida qishloq xo‘jaligi 25 % ga yaqin, sanoat 30 % atrofida va xizmat ko‘rsatish sohasi 45 % ni tashkil qiladi¹⁸. So‘nggi yillarda sanoatlashtirish va xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar qishloq xo‘jaligiga nisbatan an’anaviy yuqori vazni kamaytirdi. Masalan, avtomobilsozlik (GM Uzbekistan va boshqa korxonalar) hamda to‘qimachilik tarmoqlari eksportda muhim o‘rin egallab, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, energetika tarmog‘idagi modernizatsiya va qayta tiklanadigan energiya manbalariga o‘tish (masalan, quyosh va shamol elektr stansiyalari loyihalari) sohalarning resurslarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda muhim qadam bo‘ldi.

Bu boradagi tendensiyalarni yanada yaqqolroq tasavvur etish maqsadida O‘zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalarning 2017-2024-yillardagi o‘rtacha yillik o‘shish sur‘atini tahlil qilamiz (4-rasm).

¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.




4-rasm. O'zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalarning o'rtacha yillik o'sish sur'ati, foizda¹⁹.

4-rasmda ifodalangan O'zbekistonda 2017-2024-yillar uchun asosiy kapitalga investitsiyalarning o'rtacha yillik o'sish sur'atiga ko'ra quyidagi bir necha davrlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) 2017-2019-yillar – yuqori o'sish davri.
- 2) 2020-yil – pasayish
- 3) 2021-2022-yillar – tiklanish davri
- 4) 2023-2024-yillar – o'sishning qayta tiklanishi.

Yuqorida tahlil qilingan ma'lumotlar asosida O'zbekistonda 2010-2024-yillar davomida YaIM o'sish sur'ati, investitsiya hajmi o'sish sur'ati va ular o'rtasidagi nisbat dinamikasini quyidagi diagramma orqali kuzatish mumkin (5-rasm).



5-rasm. O'zbekistonda 2010-2024-yillar davomida YaIM o'sish sur'ati, investitsiya hajmi o'sish sur'ati va ular o'rtasidagi nisbat dinamikasi²⁰.

5-rasmdagi diagrammadan ko'rinadiki, YaIM o'sish sur'ati 2010-2016-yillarda barqaror bo'lib, 2017-yildan 2019-yilgacha keskin o'sgan, keyin esa 2020-yilda pasayib, keyingi yillarda tiklana boshlagan. Investitsiya o'sish sur'ati esa deyarli barqaror qolib, 2019-yilgacha YaIM bilan parallel tarzda o'sgan, 2020-yilda kichik

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

pasayish kuzatilgan va keyin qayta barqarorlashgan. Buning natijasida, har ikkala ko'rsatkich o'rtasidagi nisbat deyarli o'zgarmay, juda past darajada qolgan.

Umuman olganda, O'zbekiston hududlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar yillik hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni quyidagi jadval orqali baholash mumkin (2-jadval).

2-jadval

O'zbekiston hududlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar yillik hajmi, mlrd. so'm²¹

Hududlar	2019	2020	2021	2022	2023
O'zbekiston Respublikasi	195927,3	210195,1	239552,6	266240	356071,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	8750,6	7089,8	8110,7	10254	12959,2
Andijon viloyati	7452,1	9622,6	11176,6	14339,8	18639,1
Buxoro viloyati	10366,6	12183,9	20528,3	21638,3	31030,5
Jizzax viloyati	7900,9	12545,4	9233,6	10373,9	14970,9
Qashqadaryo viloyati	24462,5	20557,6	17359,1	16012,8	21138
Navoiy viloyati	17646,3	15688,4	15020,1	17958,1	26398,6
Namangan viloyati	12084,9	12007,2	12982	14775,1	19220,1
Samarqand viloyati	10266,7	14656,4	15641,6	18917,1	25717,1
Surxondaryo viloyati	11835,1	10068,2	12037,8	11569,4	18307,7
Sirdaryo viloyati	5869,1	7191,9	8051,8	12354,6	15871,8
Toshkent viloyati	20353,9	21148,6	28113,6	35767,7	47709,3
Farg'ona viloyati	8685,4	11040	12625,2	15419,3	19955
Xorazm viloyati	5032	5391,8	8292	8769,7	11666,1
Toshkent shahri	42458,1	50371,4	58172,7	56847,9	71143,7

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2019-2023-yillar davomida umumiy o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Ushbu davrda respublika bo'yicha investitsiyalar 195927,3 mlrd so'mdan 356071,4 mlrd so'mgacha oshib, bu taxminan 81,7 %ga o'sishni anglatadi. Bu umumiy iqtisodiy faollikning ortib borayotgani va mamlakatda investitsiyaviy muhitning yaxshilanib borayotganidan dalolat berishi mumkin. Biroq hududlar bo'yicha tahlil qilinganda, o'sish bir me'yorda bo'lmaganligi va alohida muammoli jihatlar mavjudligi ko'rindi.

2019-2023-yillar davomida O'zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi umumiy o'sish ko'rsatdi, lekin bu o'sish barcha hududlarda bir xil bo'lmadi. Toshkent shahri, Toshkent viloyati va Buxoro viloyati kabi hududlarda yuqori o'sish kuzatilgan bo'lsa, Qashqadaryo, Jizzax va Qoraqalpog'iston kabi hududlarda o'sish sust yoki beqaror bo'ldi. Muammoli jihatlariga hududlar o'rtasidagi investitsiyaviy nomutanosiblik, ayrim viloyatlarda o'sishning barqaror emasligi va uzoq muddatli investitsiyaviy strategiyalarning yetishmasligi kiradi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun hukumat tomonidan mintaqaviy infratuzilmani rivojlantirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish va investitsiyalarning barcha hududlarga teng taqsimlanishiga e'tibor qaratishi lozim.

Tarmoqlararo mutanosiblikning yana bir ko'rinishi transport va logistika infratuzilmasining rivojlanishidir. "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasidagi loyihalar va Toshkent-Andijon yuqori tezlikdagi temir yo'l liniyasi tarmoqlarning

²¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

tovar hamda xizmatlar ayirboshlashini oshirdi. Biroq bu o'zgarishlarga qaramay, sohalar o'rtasidagi muvofiqlik to'liq ta'minlanmagan.

Shunga ko'ra, O'zbekistonda milliy iqtisodiyot sohaları va tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblik bo'yicha qator muammolarni ko'rsatish mumkin.

1. Resurslarning nomuvozanat taqsimlanishi. Qishloq xo'jaligi hamon aholining katta qismini (taxminan 40%) ish bilan ta'minlaydi, lekin uning YAMM dagi ulushi nisbatan past (25 %). Bu sohadagi past samaradorlik va texnologik qoloqlikni ko'rsatadi. Masalan, paxtachilikda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasi talabga javob bermaydi, bu esa sanoat tarmoqlari bilan integratsiyani cheklaydi.

2. Institutsional to'siqlar. Investitsiyalarning tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishidagi mutanosiblikka davlatning haddan tashqari aralashuvi ta'sir qiladi. Xususiyl sektorning sanoat va xizmat ko'rsatish sohalaridagi faoliyati rag'batlantirilgan bo'lsa-da, qishloq xo'jaligida subsidiyalar va nazorat mexanizmlari murakkabliklar keltirib chiqaradi.

3. Infratuzilmaning yetishmasligi. Energetika va transport tarmoqlaridagi mavjud infratuzilma sanoat hamda xizmat ko'rsatish sohalarining tez rivojlanishiga to'liq mos kela olmayapti. Masalan, elektr energiyasi ta'minotidagi uzilishlar sanoat korxonalarini faoliyatiga salbiyl ta'sir ko'rsatadi.

4. Texnologik va ekologik muammolar. Qishloq xo'jaligida suv resurslaridan intensiv foydalanish (ayniqsa, Orol dengizi muammosi bilan bog'liq) va sanoatda eski texnologiyalarning ustunligi tarmoqlararo mutanosiblikni buzadi. Bu ekologik barqarorlik va uzoq muddatli o'sishga xavf tug'diradi.

O'zbekistonda milliy iqtisodiyot sohaları va tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblik so'nggi yillarda islohotlar natijasida muayyan darajada yaxshilandi, biroq resurslar taqsimoti, institutsional muhit va infratuzilmadagi muammolar hamon saqlanib qolmoqda. Fikrimizcha, ushbu muammolarni hal qilish uchun quyidagi choralarni qo'llash maqsadga muvofiq:

1) qishloq xo'jaligida zamonaviy texnologiyalarni joriyl etish va uni sanoat bilan yanada integratsiya qilish;

2) investitsiyalarni tarmoqlar bo'yicha samarali boshqarish uchun bozor mexanizmlarini kuchaytirish;

3) energetika va transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish zarur.

O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda yalpi ichki mahsulot (YaIM) va investitsiyalar o'rtasidagi mutanosiblik iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi hamda diversifikatsiyasi uchun muhim omil sanaladi. Investitsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida kapital to'planishi, texnologik yangilanish va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga xizmat qiladi, bu esa YaIMning o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar investitsiyaviyl muhitni yaxshilash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan bo'lib, bu mutanosiblikning dinamikasini tahlil qilishni dolzarb qiladi.

O'zbekistonda YaIM va investitsiyalar o'rtasidagi mutanosiblikni baholash uchun rasmiyl statistik ma'lumotlarga tayanamiz. 2023-yil yakuniga ko'ra, O'zbekiston YaIM joriyl narxlarda 1,07 kvadrillion so'mga (taxminan 90,8 milliard

AQSH dollari) yetdi, bu 2022-yilga nisbatan 6 %lik o'sishni ko'rsatadi²². Bu o'sishda investitsiyalar muhim rol o'ynadi: 2023-yilda asosiy kapitalga investitsiyalar 334,9 trillion so'mni tashkil etdi, bu YaIMning taxminan 31 %ga teng²³. Bu ko'rsatkich investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga yuqori darajadagi ta'sirini tasdiqlaydi.

Investitsiyalar tarkibida xorijiy investitsiyalar ulushi 2023-yilda 11,8 milliard dollarga yetdi, bu 2022-yilga nisbatan 22 %ga ko'pdir. Bu o'sish "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonun (2019) va bozor iqtisodiyotiga o'tish borasidagi islohotlar bilan bog'liq. Sanoat (6,4 % o'sish), qurilish (6,4 %) va xizmatlar (6,8 %) sohalaridagi o'sish investitsiyalarning samarali yo'naltirilganidan dalolat beradi. Biroq qishloq xo'jaligida o'sish sur'ati (4,1 %) nisbatan past bo'lib, bu sohadagi investitsiyalarning YaIMga ta'siri cheklanganligini ko'rsatadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, neoklassik o'sish modeliga ko'ra, investitsiyalar kapital to'planishi orqali YaIM o'sishiga olib keladi, lekin bu ta'sir kapitalning cheklangan qaytarish qonuniga bo'ysunadi. O'zbekistonda bu model qisman tasdiqlanadi: sanoat va qurilish tarmoqlarida yuqori investitsiyalar yuqori o'sish bilan bog'liq, lekin qishloq xo'jaligida samaradorlikning pastligi kapitaldan qaytarishni cheklaydi. Endogen o'sish nazariyasi (Romer, 1990) esa O'zbekistonda texnologiya va inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalarning o'sishga ta'sirini tushuntiradi. Masalan, IT-park va "Yashnobod" innovatsion texnoparki kabi loyihalar YaIMga salmoqli hissa qo'shmoqda.

Amaliy jihatdan O'zbekistonda investitsiyalar va YaIM o'rtasidagi mutanosiblik tarmoqlararo nomutanosiblik bilan murakkablashadi. Sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida investitsiyalarning qaytarishi yuqori bo'lsa-da, qishloq xo'jaligidagi past texnologik daraja va infratuzilma muammolari o'sishni to'xtatib qo'ymoqda. Jahon banki (2023) tahliliga ko'ra, O'zbekistonda investitsiyalarning YaIMga ta'siri institutsional islohotlar va infratuzilma rivoji bilan mustahkamlanadi.

Iqtisodiy o'sish va investitsion resurslar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash mamlakatlarning barqaror rivojlanishi hamda global raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Xorijiy davlatlar tajribasi investitsiyalarning samarali taqsimlanishi, texnologik innovatsiyalar va institutsional islohotlar orqali o'sishni qo'llab-quvvatlashning turli modellarini ko'rsatadi (3-jadval). Bu tajribalarning O'zbekiston uchun dolzarbligi uning bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni va investitsiyaviy muhitni yaxshilashga intilishlari bilan bog'liq.

O'zbekiston uchun xorijiy tajriba qishloq xo'jaligi va sanoat o'rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda Singapur modelidan foydalanish va Janubiy Koreya tajribasiga tayanib eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarni rivojlantirish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Xitoydan infratuzilmaga investitsiya qilish va Germaniyadan innovatsiyalarga e'tibor berish

²² O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

²³ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

sabablarini o‘rganish ham foydali bo‘ladi. Mutanosiblikni ta’minlash uchun O‘zbekistonda institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, texnologik yangilanishga sarmoya kiritish va investitsiyalarning tarmoqlararo taqsimotini optimallashtirish zarur.

3-jadval

Iqtisodiy o‘shish va investitsion resurslar o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashning xorijiy davlatlar tajribasi hamda ulardan O‘zbekistonda foydalanish yo‘nalishlari²⁴

Mamlakat nomi	Qisqacha mazmuni	O‘zbekiston uchun foydali jihatlari
Janubiy Koreya	Davlat boshqaruvidagi sanoatlashtirish va eksportga yo‘naltirilgan tarmoqlarga (elektronika, avtomobilsozlik) investitsiya kiritish.	Eksportga yo‘naltirilgan sanoat (masalan, to‘qimachilik, avtomobilsozlik) rivoji; inson kapitaliga investitsiya qilishni kuchaytirish.
Singapur	Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun soliq imtiyozlari va yuqori sifatli infratuzilma (portlar, transport) yaratish.	Xorijiy kapitalni jalb qilishda foydalanish; transport va logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish uchun strategiyalar o‘rganish.
Xitoy	Infratuzilma (temir yo‘llar, energetika) va sanoatga ulkan investitsiyalar, maxsus iqtisodiy zonalar orqali xorijiy kapital.	Infratuzilma loyihalariga investitsiyalarni kuchaytirish; maxsus iqtisodiy zonalar tashkil qilib, eksport va ichki talabni muvozanatlashtirish.
Germaniya	Innovatsiyalarga (R&D) va xususiy sektorga asoslangan investitsiyalar, “Industriya 4.0” strategiyasi bilan texnologik yangilanish.	Texnologik innovatsiyalarga sarmoya kiritish; xususiy sektorni rag‘batlantirish va yuqori sifatli ishlab chiqarishni rivojlantirish.

Dissertatsiyaning **“Iqtisodiy o‘shish va investitsion resurslar o‘rtasida mutanosiblikni ta’minlash mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari hamda istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida samarali makroiqtisodiy siyosat mutanosib iqtisodiy o‘shishning asosiy sharti ekanligi, iqtisodiy o‘shish va investitsion resurslar o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari, milliy iqtisodiyotning kapital resurslar bilan mutanosiblikda rivojlanishining istiqbollari tadqiq etilgan.

O‘zbekistonda iqtisodiy o‘shish va investitsion resurslar o‘rtasidagi mutanosiblik mamlakatning bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida muhim ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda YaIM o‘shishi (2023-yilda 6 %) va investitsiyalar hajmining ko‘payishi (YaIMning 31 %) islohotlar samarasini ko‘rsatsa-da, tarmoqlararo nomutanosiblik, infratuzilma muammolari va institutsional cheklovlar bu munosabatning to‘liq samara berishiga to‘sqinlik qilmoqda. Makroiqtisodiy siyosat – fiskal va monetar instrumentlar orqali ushbu mutanosiblikni ta’minlashda asosiy vosita bo‘lib, uning samarali rivojlanishi uchun O‘zbekistonga xos yo‘llarni ishlab chiqish zarur. Bu borada quyidagi asosiy yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

1. Fiskal siyosatning investitsiyalarga yo‘naltirilganligini kuchaytirish. O‘zbekistonda fiskal siyosat investitsiyaviy muhitni yaxshilash va tarmoqlararo

²⁴ Muallif tomonidan tuzilgan.

mutanosiblikni ta'minlash uchun qayta yo'naltirilishi kerak. 2023-yilda davlat byudjeti xarajatlari 243 trillion so'mni tashkil etdi, lekin kapital xarajatlari (infratuzilma, ta'lim) ulushi nisbatan past qolmoqda²⁵. Xususiyl sektorning rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlari (masalan, to'qimachilik, IT va qayta tiklanadigan energiya tarmoqlariga 5-7 yillik imtiyozlar) va subsidiyalarni kengaytirish zarur. Shu bilan birga, byudjet mablag'larining qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilishga (texnologiya, irrigatsiya) yo'naltirilgan qismini ko'paytirish sohaning YaIMga qo'shgan hissasini oshirib, nomutanosiblikni kamaytiradi.

2. Monetar siyosatning barqarorlik va investitsiyalarni qo'llab-quvvatlashga moslashuvi. O'zbekiston Markaziy banki 2017-yildan boshlab valyuta bozorini liberallashtirish va inflyatsiyani nazorat qilish siyosatini olib bormoqda. 2023-yilda inflyatsiya 8,8 %gacha pasaydi, lekin foiz stavkalari (14 %) xususiyl sektor uchun kreditlarni qimmat qilib qo'ymoqda²⁶. Monetar siyosatning vazifasi – inflyatsiyani 5 %lik maqsadli darajaga tushirish bilan birga, foiz stavkalarini 10-12 %gacha pasaytirib, investitsiyalar uchun kreditlarning mavjudligini oshirishdir. Bundan tashqari, mikro va kichik biznes uchun maxsus kredit liniyalarini tashkil qilish (masalan, 5-7 %lik stavka bilan) investitsiyalarning tarmoqlararo taqsimotini yaxshilaydi.

3. Institutsional islohotlar orqali ishonchli muhit yaratish. O'zbekistonda investitsiyalarning samarasi institutsional muhitga bog'liq. Institutsional islohotlar mulk huquqlarini mustahkamlash, biznes yuritish osonligini oshirish va investorlar uchun shaffof protseduralarni joriy etishni o'z ichiga olishi kerak.

4. Tarmoqlararo mutanosiblikni optimallashtirish. O'zbekistonda investitsiyalar va YaIM o'rtasidagi mutanosiblik tarmoqlararo nomuvofiqlik bilan murakkablashadi: qishloq xo'jaligi YaIMning 25 %ni ta'minlasa-da, investitsiyalarning 15 %dan kam qismiga ega. Makroiqtisodiy siyosat qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish (zamonaviy irrigatsiya, texnika) va sanoat bilan integratsiya qilishga (masalan, to'qimachilik klasterlari) qaratilishi kerak.

5. Inson kapitali va ekologik barqarorlikka investitsiyalar. Inson kapitaliga (ta'lim, malaka oshirish) yo'naltirilgan investitsiyalar O'zbekistonda nisbatan past (YaIMning 4-5 % atrofida). Makroiqtisodiy siyosat ta'limga davlat xarajatlarini YaIMning 7-8 %ga yetkazish va xususiyl sektorning malaka oshirish dasturlariga jalb qilishni maqsad qilishi lozim. Endogen o'sish modeli (Romer, 1990) asosida, bu o'sishning uzoq muddatli drayveri bo'ladi. Shuningdek, ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun "yashil" energetikaga (quyosh, shamol) investitsiyalarni ko'paytirish zarur. Masalan, Orol dengizi muammosini hal qilishda ekologik loyihalarga maqsadli subsidiyalar ajratish iqtisodiy va ekologik foyda keltiradi.

O'zbekistonda iqtisodiy o'sish va investitsion resurslar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash uchun makroiqtisodiy siyosat fiskal hamda monetar instrumentlarning muvozanatli qo'llanishi, institutsional islohotlar va tarmoqlararo integratsiya quyidagi yo'llar orqali ta'minlanishi maqsadga muvofiq:

²⁵ Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari, 2024.

²⁶ Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari, 2024.

1) soliq imtiyozlari va subsidiyalar orqali xususiy sektorni (IT, to'qimachilik, energetika) rag'batlantirish;

2) foiz stavkalarini pasaytirib, kreditlar mavjudligini oshirish (10-12 % gacha);

3) byurokratiya va korrupsiyani kamaytirib, institutsional muhitni yaxshilash;

4) qishloq xo'jaligi va sanoat integratsiyasi uchun infratuzilma loyihalarini kengaytirish;

5) inson kapitali va "yashil" texnologiyalarga investitsiyalarni YaIMning 7-8 % ga yetkazish.

Ushbu choralar amalga oshirilsa, O'zbekistonda makroiqtisodiy siyosat investitsiyalar va YaIM o'rtasidagi mutanosiblikni mustahkamlab, barqaror va inklyuziv o'sishga xizmat qiladi.

Investitsiya resurslarining kamayishi iqtisodiy o'sishni cheklab, ishsizlik va infratuzilma muammolariga olib keladi hamda uzoq muddatda barqarorlikka to'siq bo'ladi. Shu bois investitsiyalarni optimal darajada saqlash muhimdir.

Iqtisodiyotda investitsiya resurslarining yetishmasligi bilan bir qatorda, ular hajmining haddan tashqari ko'payib ketishi iqtisodiyotga o'ziga xos yuk bo'lib hisoblanishi mumkin. Buni quyidagi holatlar orqali izohlash mumkin:

investitsiyalar miqdorining iqtisodiyot real ehtiyojlaridan oshib ketishi oqibatida kapital va boshqa resurslarning ortiqcha yo'nalishiga olib kelishi. Masalan, foydasiz yoki uzoq muddatda o'zini oqlamaydigan loyihalarga pul sarflanishi mumkin, bu esa samarali sohalarning yetishmovchiligiga sabab bo'ladi;

investitsiyalarning soha hamda tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishidagi nomutanosiblik ta'sirida ayrim soha va tarmoqlarda raqobat darajasining haddan tashqari kuchayib ketishi, va aksincha, boshqa soha va tarmoqlarda yetarli darajada bo'lmasligi;

investitsiyalarning ortiqcha hajmi iqtisodiyotda sun'iy talab va inflyasiyani yuzaga keltirib, bu holat narxlar va ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi orqali makroiqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin;


agar investitsiyalar, asosan, qarzga asoslangan bo'lsa, ularning ortiqcha ko'payishi davlat, kompaniyalar yoki xususiy sektorda qarz yukining ortishiga sabab bo'ladi. Bu esa kelajakda moliyaviy inqirozlar yoki defolt xavfini kuchaytiradi;

iqtisodiyotda investitsiyalar ko'payganda, ayrim sohalarda (masalan, qurilish yoki sanoat) ishlab chiqarish quvvatlari talabdan oshib ketishi mumkin. Bu "ortiqcha quvvat" (overcapacity) muammosini keltirib chiqarib, natijada korxonalar zarar ko'rishga yoki resurslar bekorga sarflanishga olib keladi;

iqtisodiyotda investitsiyalarning nazoratsiz ko'payishi atrof-muhitga zarar yetkazishi yoki ijtimoiy mutanosiblikni buzishi mumkin. Masalan, foydasiz mega-loyihalar uchun tabiiy resurslarning haddan tashqari ishlatilishi uzoq muddatda iqtisodiyotga zarar keltiradi.

Xulosa qilib aytganda, investitsiyalar iqtisodiy o'sish uchun muhim bo'lsa-da, ularning ortiqcha hajmi resurs isrofi, moliyaviy beqarorlik va iqtisodiy nomutanosiblikka olib kelishi mumkin. Shu bois investitsiya siyosatida muvofiqlik va strategik yondashuv zarurdir.

Yuqoridagilarga tayanib aytish mumkinki, O‘zbekistonda investitsiyalar va YaIM o‘shish sur‘atlari o‘rtasidagi samarador mutanosiblikni ta‘minlovchi tartibga solish mexanizmini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi (5-rasm).



5-rasm. O‘zbekistonda investitsiya va yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘shish sur‘atlari o‘rtasidagi samarali mutanosiblikni ta‘minlash mexanizmi²⁷.

5-rasmdan ko‘rinadiki, O‘zbekistonda investitsiya va yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘shish sur‘atlari o‘rtasidagi samarali mutanosiblikni ta‘minlash uchun tartibga solish mexanizmini shakllantirishda, avvalambor, investitsiya siyosatini strategik rejalashtirish orqali ustuvor tarmoqlarni aniqlab, davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish, so‘ng investitsiya muhitini yaxshilash maqsadida soliq imtiyozlari berish va investorlar huquqlarini himoya qilishga e‘tibor qaratish lozim.

Bundan tashqari, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish uchun bank tizimini isloh qilish, kapital bozorini rivojlantirish, venchur fondlarini jalb etish, shuningdek, investitsiyalarning YAIMga ta‘sirini muntazam kuzatish va baholash tizimini joriy etish muhimdir. Innovatsiya va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida texnologiya transferini rag‘batlantirish, ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga investitsiya kiritish, texnoparklar tashkil etish, inson kapitalini rivojlantirish yo‘lida kadrlar tayyorlash va ta‘limni ishlab chiqarish bilan integratsiyalash, hududlar investitsiyaviy jozibadorligini oshirish orqali mintaqaviy mutanosiblikni ta‘minlash, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va eksportga yo‘naltirilgan tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlash uchun davlat, xususiy sektor va xalqaro sheriklik hamkorligi asosida doimiy monitoringni yo‘lga qo‘yish zarur hisoblanadi.

²⁷ Muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.

Mamlakatda iqtisodiy o‘shishning umumiy ko‘rsatkichi bo‘lib, YaIM hajmining o‘shishi hisoblanadi. YaIM hajmining o‘shishiga bevosita uning tarkibiy qismlari va asosiy kapitalga investitsiyalar o‘shishi ta’sir ko‘rsatadi.


Mamlakatda asosiy kapitalga investitsiyalar va iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan sanoat, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, qurilish tarmoqlari, xizmatlar sohasining o‘shishi Yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmining o‘shish sur‘atlariga nisbatan funktsiya deb olindi. Buning uchun bu o‘zgaruvchilar orasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti hisoblandi.

Microsoft Excel dasturidagi hisob-kitoblar natijasida quyidagi ekonometrik modelni tuzdik.

$$Y = 0,174116 + 0,016305X_1 + 0,295784X_2 + 0,172223X_3 + 0,057157X_4 + 0,41461X_5$$

$$R = 0,9926 \quad D=R^2 = 00,98526 \quad F = 254,0272 \quad (3)$$

Modeldan ko‘rinib turibdiki, asosiy kapitalga investitsiyalarning qo‘shimcha 1 %ga o‘shishi YaIMning qo‘shimcha 0,016305 %ga o‘shishiga, qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining qo‘shimcha 1 %ga o‘shishi YaIMning qo‘shimcha 0,295784 %ga o‘shishiga, iqtisodiyotda sanoat tarmog‘ining qo‘shimcha 1 %ga o‘shishi YaIMning qo‘shimcha 0,172223 %ga o‘shishiga, qurilish tarmog‘ining qo‘shimcha 1 %ga o‘shishi YaIMning qo‘shimcha 0,057157 %ga o‘shishiga, xizmatlar sohasining qo‘shimcha 1 %ga o‘shishi YaIMning qo‘shimcha 0,414614 %ga o‘shishiga olib kelar ekan.



6-rasm. YaIM, asosiy kapitalga investitsiyalar va iqtisodiyot tarmoqlarining qo‘shimcha o‘shish sur‘ati prognozi, %²⁸

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, bizning hisob-kitoblarimiz bo‘yicha YaIM hajmi yaqin olti yillikda barqaror yuqori o‘shish tendensiyasiga ega bo‘ladi. 2025-2030-yilgacha yillik o‘rtacha o‘shish sur‘ati 6,515 foizni tashkil etib, YaIMning $(1,065^6 = 1,46)$ 1,5 barobarga yaqin oshishiga olib keladi.

²⁸ Muallif tomonidan tuzilgan.

XULOSA

1. Dissertatsiyada iqtisodiy mutanosiblik “ishlab chiqarish omillari, tarmoqlar va iqtisodiy faoliyat tarkibiy qismlari o‘rtasidagi maqbul nisbatlarni ta’minlash jarayoni” sifatida qayta talqin qilingan. Bu ta’rif klassik modellardan farqli ravishda ijtimoiy-ekologik muvozanat va barqaror rivojlanishni ham qamrab oladi, bu esa zamonaviy iqtisodiyot uchun yangi konseptual asos yaratadi.

2. Ilmiy yangilik sifatida investitsion resurslar va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi mutanosiblikka oid 7 ta faraz shakllantirilgan, jumladan, investitsiyalarning tarkibiy xilma-xilligi va o‘shishga turli darajada ta’siri, shuningdek, o‘shish sur’atiga qarab investitsiya hajmini tartibga solish imkoni. Bu farazlar amaliy siyosat uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

3. Dissertatsiyada klassik (Solou-Svan, Xarrod-Domar) va zamonaviy (endogen o‘shish, raqamli va ekologik mutanosiblik) modellarning sintezi taklif qilingan. Bu yondashuv statik tahlildan dinamik va integrativ usullarga o‘tishni ta’minlab, O‘zbekiston kabi o‘tuvchan iqtisodiyotlarda mutanosiblikni tahlil qilishning yangi usulini yaratgan.

4. O‘zbekiston uchun investitsiya va YaIM o‘shish sur’atlari mutanosibligini ta’minlash mexanizmi ishlab chiqilgan, u strategik rejalashtirish, bank islohotlari, texnologiya transferi va mintaqaviy muvofiqlikka asoslanadi. Bu mexanizm klassik davlat aralashuvidan farqli ravishda xususiy sektor va xalqaro hamkorlikning uyg‘unligini ta’kidlaydi.

5. Iqtisodiyotdagi investitsiya hajmini me’yorga muvofiqligi buzilishining salbiy oqibatlari asosida investitsiya va yalpi ichki mahsulot o‘shish sur’atlari o‘rtasidagi samarali mutanosiblikni ta’minlash imkonini beruvchi tartibga solish mexanizmini shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

6. O‘zbekistonda tarmoqlararo mutanosiblikning holati (2017-2024-yillar ma’lumotlari asosida) dinamik tahlil qilinib, qishloq xo‘jaligi va sanoat o‘rtasidagi nomutanosiblikka yangi yechimlar (modernizatsiya, integratsiya) taklif qilingan. Bu klassik statik modellardan farqli ravishda vaqt gorizontiga e’tibor qaratadi.

7. Dissertatsiyada investitsiyalar samarasiga institutsional muhit (qonun ustuvorligi, mulk huquqlari) ta’siri yangi jihatdan tahlil qilingan. Bu O‘zbekistonda investitsiyaviy ishonchni oshirish uchun institutsional islohotlarning muhimligini ilmiy asoslab bergan.

8. Ilmiy yangilik sifatida investitsiya hajmining me’yordan oshishi (inflyatsiya, ortiqcha quvvat) va kamayishi (ishsizlik, texnologik qoloqlik) salbiy oqibatlari tahlil qilinib, O‘zbekiston uchun optimal darajani aniqlash va tartibga solish usuli taklif qilingan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 03/30.01.2021.I.16.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ОТАБОЕВ ФЕРУЗБЕК ОЙБЕК УГЛИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОПОРЦИОНАЛЬНОСТИ МЕЖДУ
ЭКОНОМИЧЕСКИМ РОСТОМ И ИНВЕСТИЦИОННЫМИ
РЕСУРСАМИ**

08.00.01 – Теория экономики

АВТОРЕФЕРАТ

Диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Ташкент – 2025 г.

Тема докторской диссертации (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2021.4.PhD/Iqt1466.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете
Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Научного совета (www.nuu.uz) и на Информационно-образовательном портале «Zionet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Хажиев Бахтиёр Душабоевич
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Мамбетжанов Кахрамон Курбандурдиевич
доктор экономических наук, профессор

Махмудов Шерали Хусанович
кандидат экономических наук (PhD), Доцент

Ведущая организация:

Высшая школа бизнеса и
предпринимательства при Кабинете
Министров Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится на заседании ученого совета за номером DSc.03/30.01.2021.I.16.03 при Ташкентском государственном экономическом университете 12.08 2025 года. Адрес: 100003, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72; факс: (99871) 239-43-51. e-mail: tdiu@tdiu.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрирован под номером 1716). Адрес: 100003, город Ташкент, улица Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72; факс: (99871) 239-43-51. e-mail: tdiu@tdiu.uz

Автореферат диссертации распространен «08» 08 2025 года.
(Выписка из реестра № 83 от «8» 08 2025 года).



[Signature]
С.К. Худойкулов
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
экономических наук, профессор

[Signature]
Б.Э. Мамарахимов
Секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней,
кандидат экономических наук,
профессор

[Signature] — У.В. Гафуров
Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению
ученых степеней, доктор
экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации на соискание степени доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В устойчивом развитии мировой экономики возрастает значение баланса между экономическим ростом и инвестиционными ресурсами как одного из решающих факторов. Например, "хотя в 2023 году объем прямых инвестиций в развитые страны снизился на 12 процентов и составил 1,3 триллиона долларов, приток инвестиций в развивающиеся страны значительно увеличился. Это показывает важность привлечения инвестиций в новые проекты в промышленности и инфраструктуре."²⁹ Эффективная инвестиционная политика стимулирует экономический рост, позволяет оптимально использовать ресурсы и обеспечивает макроэкономическую стабильность. В то же время, неправильно распределенный поток инвестиций может привести к экономическому дисбалансу и долгосрочным проблемам. Поэтому оптимизация инвестиционной стратегии и координация темпов экономического роста является важной задачей для мировой экономики, и этот процесс служит повышению экономической эффективности, модернизации технологий и уровня конкурентоспособности.

В мире проводятся научные исследования, направленные на теоретические аспекты совершенствования баланса между экономическим ростом и инвестиционными ресурсами в условиях расширения процессов глобализации. Анализ влияния инвестиционной политики на экономический рост на национальном и региональном уровнях, разработка эффективных инвестиционных моделей, изучение влияния мировых рынков и движения капитала на экономический рост, оценка роли транснациональных корпораций и прямых иностранных инвестиций, формирование инвестиционного климата, стимулирующего экономический рост со стороны государства, анализ влияния налоговой и кредитной политики, экологическая устойчивость и влияние инвестиций на окружающую среду, изучение эффективности инвестиций в возобновляемые источники энергии являются приоритетными направлениями научных исследований, направленных на совершенствование баланса между экономическим ростом и инвестиционными ресурсами.

В Новом Узбекистане проводятся масштабные реформы с целью совершенствования баланса между экономическим ростом и инвестиционными ресурсами. Особое внимание уделяется обеспечению экономического роста путем совершенствования государственной инвестиционной политики, создания благоприятного инвестиционного климата и привлечения иностранных инвестиций. Например, в Указе No УП-5614, принятом в 2019 году, определены меры по дальнейшему развитию экономики и улучшению инвестиционного климата, в котором указаны такие

²⁹ Maxmudxodjayev A.Yu. Rivojlangan mamlakatlarda investitsiyalarni jalb qilish – iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili // CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION // https://cyberleninka.ru/article/n/rivojlangan-mamlakatlarda-investitsiyalarni-zhalb-ilish-i-tisodiy-tara-iyotning-muim-omili?utm_source=chatgpt.com

задачи, как дальнейшее совершенствование институциональной базы работы с иностранными инвесторами и повышение эффективности деятельности специальных экономических зон.³⁰ Кроме того, в целях обеспечения устойчивых темпов роста в Узбекистане принимаются меры по формированию диверсифицированной экономики, модернизации отраслей промышленности и развитию цифровой экономики. В частности, Стратегия экономического развития на 2022-2026 годы предусматривает повышение эффективности производства, расширение экспортного потенциала и внедрение инновационной экономической модели. Правительство Узбекистана также стремится обеспечить долгосрочный устойчивый рост за счет развития "зеленой экономики" и увеличения инвестиций в возобновляемые источники энергии. В публикации "Инвестиционный потенциал Узбекистана," подготовленной Программой развития ООН, представлен экономический потенциал страны, бизнес-предложения и интервью с иностранными инвесторами, отражающие усилия Узбекистана по повышению инвестиционной привлекательности.

